

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna ИККИНЧИ ЈАҲОН УРУШИ YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БўЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUHORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Kimsanova R.X.

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Fargʻona davlat universiteti

RushanaXayrullayevna@gmail.com**SEVINCHXOʻJAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA
TOSHKENT HUKUMRONLIGI*****ANNOTATASIYA***

Ushbu maqolada shayboniylar sulolasining taniqli namoyandalari boʻlgan Sevinchxoʻjaxon hamda Keldi Muhammadxon hukmronligi davrida Toshkent viloyatining geosiyosiy maqomi va boshqaruv tizimi tahlil qilinadi. Maqolada asosiy urgʻu hududning siyosiy barqarorligi hamda harbiy-strategik ahamiyatini yoritishga qaratilgan boʻlib, davrning oʻziga xos maʼmuriy xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: Shayboniylar, Toshkent, Sevinchxoʻjaxon, Keldi Muhammadxon, siyosiy boshqaruv, harbiy strategiya, XVI asr, Movarounnahr, “Toʻrt asr oldingi Toshkent”, davlatchilik.

KIRISH

Oʻzbekiston davlatchiligi tarixida Shayboniylar sulolasi boshqaruvi davri markazlashgan davlat tizimining shakllanishi va mintaqaviy siyosiy barqarorlikni taʼminlash borasidagi saʼy-harakatlar bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, XVI asrda Toshkent vohasining siyosiy, iqtisodiy va harbiy markaz sifatida yuksalishi bevosita ushbu sulolaning salohiyatli vakillari faoliyati bilan bogʻliqdir. Oʻzbek davlatchiligi tarixida Shayboniylar sulolasi boshqaruvi (1500–1601 yy.) Markaziy Osiyo mintaqasida ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotning oʻziga xos bosqichini tashkil etadi. Ushbu davrda Toshkent shahri va uning atrofi (vohasi) strategik nuqtai nazardan hamda iqtisodiy resurslar manbai sifatida sulola vakillari oʻrtasida alohida nufuzga ega boʻlgan. Xususan, Sevinchxoʻjaxon va uning vorisi Keldi Muhammadxon hukmronligi yillarida Toshkent nafaqat yirik viloyat markazi, balki Shayboniylar davlatining shimoliy chegaralarini himoya qiluvchi muhim harbiy-siyosiy istehkom vazifasini oʻtagan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Hozirgi vaqtda mintaqaviy tarixshunoslikni yangi metodologik yondashuvlar asosida oʻrganish, xususan, maʼlum bir hududda hukmronlik qilgan sulola vakillarining shaxsiy siyosiy irodasi va boshqaruv uslublarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sevinchxoʻjaxon (1503–1524) davrida Toshkentda mustahkam markazlashgan boshqaruv tizimi shakllangan boʻlsa, Keldi Muhammadxon (1524–1532) davrida bu siyosatning harbiy va diplomatik jihatlari yanada takomillashtirildi.

Ushbu maqolaning asosiy vazifasi – oʻrta asr qoʻlyozma manbalari va zamonaviy tadqiqotlar sinteziga tayangan holda, Toshkent hukmdorlarining davlat

yaxlitligini saqlash borasidagi harbiy-siyosiy harakatlariga xolis baho berishdan iboratdir. Maqolada keltirilgan xulosalar XVI asr Movarounnahr tarixini yanada chuqurroq anglashga va Toshkent shahrining tarixiy boshqaruv an'alarini tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Sevinchxo'jaxon va Keldi Muhamadxonlarning tarixini o'rganish borasida mintaqa olimlari salmoqli ishlarni e'lon qilishgan. Quyida tadqiqot natijalari o'z davri uchun mutloq yangilik darajasida bo'lgan ayrim muhim ilmiy ishlar xususida to'xtalamiz.

A. Zamonovning "Buxoro xonligi tarixi" asarida XVI asrda Movarounnahrda Shayboniylar tomonidan markazlashgan davlat tuzish jarayonidagi siyosiy jarayonlar nisbiy ravishda uch guruhga bo'lib tahlil qilingan. Muallif Toshkent mulklarini boshqargan Sevinchxo'jaxon va uning avlodlari shajarasi hamda ularning hukmronlik yillarini jadval ko'rinishida keltirib o'tgan. Asarda Movarounnahr hududlari Abulxayrxonning to'rt avlodi tomonidan boshqarilganligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Abdurashid Nishonovning Shayboniylar davriga oid ilmiy tadqiqot ishlari mazkur davr uchun muhim masalalarni ko'tarib chiqqani bilan ajralib turadi. U asosan Shayboniylar davrining siyosiy voqealari, sulolaviy kurashlar, hukmdorlar faoliyati kabi masalalariga to'xtalgan. Ammo Shayboniylar davri keng tarixiy kontekstda emas, ko'proq voqeanavislik ruhida bayon etilgan, lekin ayanan noyob jarayonlarni olib chiqqanligi va ushbu davrda Farg'ona vodiysidagi siyosiy jarayonlarni ochib berganligi bilan e'tibor tortadi. Hamda uning ilmiy ishlari Shayboniylar tarixining ayrim muhim epizodlarini yoritishda manba sifatida inkor etib bo'lmaydigan ahamiyatga ega.

O'.Sultonovning "Toshkent mulki Shayboniylar davrida: Suyunchxo'jaxon xonadoni boshqaruvi haqida ayrim qaydlar" maqolasida XVI asrda Farg'ona vodiysida hukmronlik qilgan Sevinchxo'jaxon avlodlari tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan. So'nggi yillarda vaqf hujjatlarining manbaviy ahamiyatini o'rganish bilan bog'liq yirik tadqiqot O'.A.Sultonov tomonidan amalga oshirildi. U to'rt asr davomida Toshkentda yartilgan hujjatlarni o'rganib, vaqflarning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rnini tahlil etdi.

R.G.Muqminova qalamiga mansub "To'rt asr oldingi Toshkent" asarida Farg'ona vodiysida yuz bergan XVI asrga oid qator tarixiy voqealar haqida ayrim ilmiy qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif 1514-yilda Shayboniy sultoni Sevinchxo'jaxon Farg'onani Sulton Saidxondan tortib olganidan so'ng, vodiyni Muhammad Sultonga hokim etib tayinlaganini qayd etadi. Toshkent va Farg'onada Sevinchxo'jaxon avlodlarining hukmronligi vodiy Abdullaxon tasarrufiga o'tguniga qadar davom etganligi haqida ham fikr yuritilgan.

Temuriylar davlatining zaiflashib borishi Dashti Qipchoqda yashagan ko'chmanchi qabilalarning Movarounnahrda kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratdi. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxonning nabirasi bo'lgan Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi dasht lashkarlari 1499-yildan boshlab birin-ketin Movarounnahr viloyatlarini zabt eta boshladi. 1503-yilga kelib Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Jizzax va O'rtepa hududlari Muhammad Shayboniyxon qo'l ostiga o'tib bo'lgan edi.

Shayboniyxon Zahiriddin Muhammad Bobur va uni qo'llab-quvvatlagan Toshkent xoni Sulton Mahmudxon hamda Mo'g'uliston xoni Sulton Ahmadxonlar bilan Farg'onada hokimiyatni amalda qo'lga kiritib olgan amir Sulton Ahmad Tanbal o'rtasidagi kurashdan ustalik bilan foydalandi.

Shayboniyxonning Balxni qamal qilish bilan band bo'lib qolganligi Ahmad Tanbalga Farg'ona qo'shini bilan Sevinchxo'jaxon mulki hisoblangan Toshkent hududlariga hujum qilish imkonini berdi. Mirzo Haydarning[5] yozishicha, Ahmad Tanbal ukasi Shayx Boyazid bilan birga Toshkentga yurish qilgan. Bobur mirzo esa "Boburnoma" asarida Ahmad Tanbalning Piskantga yurish qilganini qayd etadi.

Tarixchi olim S. Jalilov Ahmad Tanbal o'z lashkari bilan Toshkentni qamal qilganligini ta'kidlaydi. Biroq, bizning fikrimizcha, Ahmad Tanbal Toshkent shahriga yetib bormagan, balki Piskantdan ortga qaytgan.

Mirzo Haydar ham temuriy mirzolar xizmatida bo'lgan ko'plab mo'g'ullar Movarounnahrning katta qismi Shayboniyxon qo'lga o'tgach, Farg'onaga to'planganligini qayd etadi. Ahmad Tanbalning harbiy qudrati oshib borishi unga Toshkent viloyatiga yurish qilish imkonini berdi. Ikkinchidan esa, Ahmad Tanbal qo'shinlarining asosini tashkil etgan mo'g'ullarda yaqingacha o'zlariga tegishli bo'lgan Toshkentni qaytarib olish istagi ushbu viloyatga yurish qilinishiga sabab bo'lgan.

Dastlab Ahmad Tanbal tomonida turib, mo'g'ul xonlari Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxon va temuriy hukmdor Zahiriddin Muhammad Boburga qarshi kurash olib borgan Shayboniyxon keyinchalik Ahmad Tanbalning Farg'onadagi hokimiyatini ham tugatdi va bu hududni o'z davlati tarkibiga kiritdi.

Fazlulloh ibn Ro'zbehon o'zining "Mehmonnomayi Buxoro" asarida Shayboniyxonning 1509-yilda qozoqlar ustiga uyushtirgan yurishi vaqtida Toshkentdan Sevinchxo'jaxon, Farg'onadan Jonibek sulton bilan bir qatorda Xo'jand va Shohruxiya amirlari ham o'z askarlari bilan qo'shinga kelib qo'shilganini ta'kidlaydi[4:88].

1512-yilning bahorida shayboniy sultonlar Buxoro va Toshkent shaharlari tomon yurish boshlaydilar. Bobur mirzo qo'shinining bir qismi bilan Buxoro tomonga yo'lga chiqqan bo'lsa, amir Qosim Ko'hbur rahbarligidagi yana bir lashkarni Toshkentni himoya qilish uchun yuboradi. Biroq Buxoro shahrining g'arbidagi Ko'li Malik jangida Bobur mirzo qo'shini to'liq mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng Bobur mirzo dastlab Samarqandga, u yerdan esa Hisorga chekinishga qaror qiladi.

Tarixiy manbalarda ushbu voqealarda Farg'ona vodiysi hokimi Sulton Saidxonning qay darajada ishtirok etgani haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Toshkent shahri aholisi amir Qosim Ko'hbur rahbarligida olib borgan mudofaa janglarini batafsil bayon qilgan "Tarixi Rashidiy" asari muallifi Haydar mirzo shahar himoyachilariga Sulton Saidxon tomonidan yordam berilgani haqida ma'lumot bermaydi. Bundan ko'rinadiki, Sulton Saidxon bu voqealarni faqat kuzatish bilan cheklangan. Bu esa uning eng katta xatolaridan biri bo'lib, keyinchalik o'z davlatining yemirilishiga ham olib kelgan.

Toshkent himoyachilari majbur bo'lib shaharni tashlab chiqib, Farg'ona vodiysiga chekinadilar. Ular Sulton Saidxon saroyida uzoq qolmasdan, Hisorda o'z

kuchlarini qayta jamlayotgan Bobur mirzo huzuriga borishni ma'qul ko'rganlar. Garchi shayboniy sultonlar Toshkent shahrini egallagan bo'lsalar-da, orqada Sayram qolib ketgan bir sharoitda vodiya bostirib kirishlari mushkul edi. Ikkinchidan, bu vaqtda Hisorda o'zini ancha tiklab olgan Bobur mirzo Shoh Ismoil tomonidan yuborilgan yordamga tayangan holda yana bir bor Shayboniylarga qarshi yurish boshlashi kutilayotgan edi. Shunday vaziyatda Toshkentni zabt etgan shayboniylar qo'shini voqealar rivojini kutishga majbur bo'ldi.

Bobur mirzo lashkarining eronlik sarkarda amir Najmi Soniy qo'shini bilan birgalikdagi yurishiga qarshi kurashgan shayboniy sultonlar safida Toshkentni zabt etgan Sevinchxo'jaxon nomi qayd etilmaydi. Bu holat boshqa manbalarda uchramasa-da, "Tarixi Rashidiy"da keltirilgan ma'lumotning asosli ekanini ko'rsatadi [5:383]. Demak, Haydar mirzo bu davrda Sulton Saidxon Sevinchxo'jaxon ustiga yurish qilganini to'g'ri qayd etgan.

Sulton Saidxon Toshkentni egallagan shayboniylar qo'shinining harakatsiz qolganidan dadillanib hamda Bobur mirzoning talabiga ko'ra Shayboniylarga qarshi yurish boshlaydi. Bobur mirzo Hisorda bo'lgan paytda ham Sulton Saidxon bilan elchilar almashib turgani manbalarda qayd etilgan. Shu sababli Farg'ona qo'shinining Shayboniylarga qarshi yurishi o'zaro kelishuv asosida amalga oshirilgan, deyish mumkin.

"Tarixi Rashidiy"da yozilishicha, Sulton Saidxon lashkari bilan Sevinchxo'jaxon qo'shini o'rtasidagi jang Biskand mavzesida bo'lib o'tgan. Bu hozirgi Toshkent viloyati hududida joylashgan Piskent shahri bo'lishi ehtimolga yaqin. Chunki "Boburnoma"ning turli nusxalarida mazkur joy nomi Piskent, Beshkent hamda tarjimalarda Biskand shaklida uchraydi[7:88]. Shuningdek, Biskand mavzesi jang bo'lib o'tgan hududga mantiqan mos keladi. Demak, Sulton Saidxon Toshkent vohasiga dovon orqali emas, balki Xo'jand orqali kirib kelgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Biskand jangida Shayboniylar g'alaba qozonadilar. Jangda yaralangan Sulton Saidxon o'z qo'shini bilan vodiya qaytib, Bobur mirzo olib borayotgan janglarning natijasini kutishga majbur bo'ladi. Ushbu jang 1512-yil sentabr oyida yoki undan biroz oldin sodir bo'lgan. Chunki aynan shu davrda Sulton Saidxon huzuriga kelgan Haydar mirzo uning Biskand jangidan qaytganini qayd etadi.

Sevinchxo'jaxon ham Sulton Saidxonni quvib, vodiya bostirib kirmaydi. Bunga Sayramning hali zabt etilmagani va Bobur mirzoning Qarshi vohasidagi harbiy harakatlari sabab bo'lgan bo'lishi mumkin [5:386].

1513-yil bahorigacha Sayramni o'z qo'lida ushlab turgan amir Kattabek uni Shayboniylarga emas, balki ularning ashaddiy raqibi bo'lgan qozoq xoni Qosimxonga topshiradi. Natijada qozoqlar Shayboniylarning Turkiston va Toshkentdagi mulklariga jiddiy xavf sola boshlaydilar.

Biroq bundan oldin, ya'ni Bobur mirzoning mag'lubiyatidan so'ng Sevinchxo'jaxon Farg'ona vodiysi tomon yurish boshlaydi. Haydar mirzo ushbu yurish Biskand jangidan uch oy o'tib sodir bo'lganini ta'kidlaganiga ko'ra, uni 1512-yil noyabr oxiri - dekabr oylariga to'g'ri keladi, deb hisoblash mumkin. Ammo Sevinchxo'jaxonning bu yurishi muvaffaqiyatli yakunlanmaydi. Bunga Sulton Saidxon tomonidan ishlab chiqilgan puxta mudofaa rejasi sabab bo'lgan. U

Axsida Mir G'uri Barlos, Marg'ilonda Mir Doim Ali, Andijonda Said Muhammad boshchiligida qo'shin qoldirib, o'zi Andijon shimolidagi tog'larga chekinadi[5:388, 398]. Qish boshlanayotgan va shimoldagi vaziyat keskin bo'lib turgan paytda vodiylar shaharlarini qamal qilishni maqsadga muvofiq deb topmagan Sevinchxo'jaxon yurishni to'xtatib, ortga qaytishga majbur bo'ladi.

Bundan foydalangan Sulton Saidxon ham hujumkor siyosat yuritishga jur'at etadi. U 1513-yil bahorida Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududiga hujum qiladi. Farg'ona qo'shini bir necha mayda janglarda g'alabaga erishadi. Haydar mirzo bu yurishda shaxsan o'zi ishtirok etganini, janglarda Sulton Saidxonning alohida jasorat ko'rsatganini ham qayd etadi. Biroq Farg'ona qo'shini Toshkentga yurish qilishga jur'at etmay, katta o'ljalar bilan vodiylar qaytib ketadi.

1513-yil bahorida Sayramni egallagan qozoq xoni Qosimxon, bir oz vaqt o'tgach, amir Kattabekning iltimosiga ko'ra Toshkent tomon ham yurish boshlaydi. U Toshkentni zabt etmagan bo'lsa-da, Sevinchxo'jaxonni bir muddat qamal qilib, shahar atrofini talon-taroj qilgach, qozoq dashtlariga qaytadi.

Qosimxonning Toshkent yurishi haqida xabar topgan Sulton Saidxon yana bir bor Sevinchxo'jaxon ustiga yurish boshlaydi. Biroq Farg'ona qo'shini Kandirlik dovoniga yetib kelgan paytda Qosimxon ortga qaytgani ma'lum bo'ladi va Sulton Saidxon ham yurishni to'xtatishga qaror qiladi.

1513-yil yozida Sulton Saidxon Farg'ona vodiysi qal'alarini mustahkamlab, o'zi Mo'g'uliston orqali Qosimxon huzuriga yo'l oladi. Qosimxon yordam berishdan bosh tortgach, Sulton Saidxon Shayboniylarga qarshi kurashda g'alaba qozonish umidini butunlay yo'qotadi.

1514-yil aprel-may oylarida Toshkent hokimi Sevinchxo'jaxon boshchiligidagi Shayboniylar lashkari Farg'ona vodiysi tomon yurish boshlaydi. Bu paytda Shayboniylarning Xuroson yurishi yakunlanib, asosiy e'tibor Movarounnahrqa qaratilgan edi. Sulton Saidxon qarshilik ko'rsatmasdan vodiylardan chiqib ketadi va Qoshg'arga chekinib, u yerda Saidiya davlatiga asos soladi.

Shayboniynonning 1509-yilda qozoqlar ustiga qilgan yurishidagi muvaffaqiyatsizlik Farg'ona vodiysiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yurish natijalaridan norozi bo'lgan Shayboniynon suyrug'ol egalari o'rnini almashtiradi. Natijada Farg'ona hokimi Jonibek sulton Karmana hududiga ko'chiriladi, uning suyrug'oli bo'lgan vodiylar esa Sevinchxo'jaxonga in'om etiladi [4:141].

Alohida ta'kidlash joizki, Sevinchxo'jaxon davrida Farg'ona vodiysi Toshkent vohasi bilan birgalikda uning tasarrufida bo'lgan. U o'ziga markaz sifatida Toshkentni tanlab, vodiyni tayinlangan hokimlar orqali boshqargan.

Shayboniylar va Safaviylar davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi tarixiy voqealar rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ismoil Safaviyning hujumi natijasida Marv shahrida qamalda qolgan Shayboniynonga yordamga yo'l olgan sultonlar safida bo'lgan Sevinchxo'jaxon Toshkentdan to'g'ridan-to'g'ri Samarqand tomon yo'l olishga majbur bo'ladi. Bu haqda Muhammadyor ibn Arab Qatagon shunday yozadi: "Haqiqatan ham Sevinchxo'ja sulton, Baroqxon laqabi bilan tanilgan Navro'z Ahmad sulton va Keldi Muhammad sulton ismli o'g'illari bilan Toshkent, Turkiston, Axsi va Andijon qo'shinlariga bosh bo'lib, xalifalik taxti tomon kelayotgan edilar".

Shayboniyxonning Marvdagi halokati va Bobur mirzoning Puli Sangin jangidagi g'alabalaridan so'ng Sevinchxo'jaxon boshqa shayboniy sultonlar qatori Turkiston shahriga chekinishga majbur bo'ladi.

Manbalarda qayd etilishicha, Marg'ilon shahri aholisi bir necha bor o'z mahalliy hokimlari faoliyatidan norozi bo'lib, bevosita Toshkent xoniga murojaat qilgan. Ushbu murojaatlar asosida Marg'ilon hokimlariga nisbatan tegishli choralar Toshkent xoni tomonidan ko'rilgan. Mazkur holat Toshkent xonining Farg'ona vodiysi shaharlaridagi ma'muriy va siyosiy jarayonlarga faol aralashganini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, Farg'ona vodiysidagi yirik shaharlar - Axsi, Andijon, Marg'ilon va Xo'jand hokimlari to'g'ridan-to'g'ri Toshkent xoni Sevinchxo'jaxonga bo'ysungan, degan xulosaga kelish mumkin. Bu holat Toshkentning nafaqat siyosiy markaz, balki Farg'ona vodiysi ustidan oliy nazoratni amalga oshirgan markaziy hokimiyat sifatidagi mavqeini tasdiqlaydi.

Sevinchxo'jaxon vafotidan so'ng hokimiyat uning o'g'li Keldi Muhammad qo'liga o'tdi. Keldi Muhammad Toshkent shahridan turib davlatni boshqargan bo'lsa-da, Farg'ona vodiysi ham uning davlati tarkibida bo'lgan. Sevinchxo'jaxon davrida shakllangan boshqaruv tizimi Keldi Muhammad hukmronligi davrida ham saqlanib qolib, Farg'ona vodiysi Axsi, Andijon, Marg'ilon va Xo'jand kabi yirik shaharlarga bo'lingan holda boshqarilgan.

Keldi Muhammad sulton (tarixiy manbalarda Sulton Muhammad Bahodir nomi bilan ham tilga olinadi) otasi Sevinchxo'jaxon hukmronligi davrida Shohruhiya shahrida hokimlik qilgan. Sevinchxo'jaxon 1525-yil 23-iyulda Toshkentda vafot etgach, Keldi Muhammad sulton taxtga o'tirib, Toshkent markaziy siyosiy boshqaruv markazi sifatida saqlab qolindi. Shu bilan birga, uning ukasi Navro'z Ahmadxon Shohruhiya shahriga hokim etib tayinlandi. Bu holat Toshkent va Farg'ona mulklarining vorisi sifatida Shohruhiya shahrini boshqarish an'anaga aylanganini ko'rsatadi.

Tarixchi Muhammadyor ibn Arab Qatag'an ma'lumotlariga ko'ra, Keldi Muhammad sulton otasi vafotidan so'ng Toshkent viloyatida o'zbek amirlari ittifoqiga tayangan holda davlatni boshqargan, adolat va tartibga asoslangan siyosat yuritgan. Uning hukmronligi qisqa davom etgan bo'lsa-da, markaziy hokimiyatni saqlab qolish va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan faoliyat olib borilgan. Keldi Muhammad sulton 1532-yilda vafot etgan bo'lib, uning hukmronlik davri sakkiz yilni tashkil etgan.

Keldi Muhammad sultondan Hasanxon ismli o'g'il qolgan bo'lib, u qisqa muddat amakisi Baroqxon tarbiyasida bo'lgan va tabiiy o'lim bilan vafot etgan. Hasanxondan avlod qolmagan. Manbalarda, shuningdek, Keldi Muhammad sulton hukumatida Xoja Jaloliddin Yusuf Qoshg'ariy bosh vazir lavozimini egallagani qayd etiladi [6:145].

XULOSA

XVI asrning birinchi yarmida Toshkent vohasining geosiyosiy mavqeyini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, Sevinchxo'jaxon va Keldi Muhammadxon hukmronligi davrida ushbu hudud nafaqat yirik viloyat markazi, balki

Shayboniylar davlatining shimoliy chegaralarini himoya qiluvchi va Fargʻona vodiysi ustidan oliy nazoratni amalga oshiruvchi markaziy siyosiy-maʼmuriy boʻgʻinga aylangan. Mazkur davrda Toshkent hukmdorlarining temuriy Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Saidxon va qozoq xonlari bilan olib borgan harbiy-diplomatik kurashlari mintaqada shayboniylar hukmronligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, natijada Axxi, Andijon, Margʻilon va Xoʻjand kabi yirik shaharlar hokimlari bevosita Toshkent xoniga boʻysundirilgan. Sevinchxoʻjaxon tomonidan asos solingan bu kabi markazlashgan boshqaruv tizimi uning vorisi Keldi Muhammadxon davrida ham muvaffaqiyatli davom ettirilib, oʻzbek amirlari ittifoqiga tayanilgani va Shohruhiya shahrining voris sultonlar qarorgohiga aylanish anʼanasi davlat institutlarining barqarorligini taʼminlagan. Shunday qilib, ushbu hukmdorlar davri Toshkentning Movarounnahr siyosiy hayotidagi yetakchilik maqomini belgilab bergan muhim tarixiy bosqich sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1994. – 429 b.
2. Arslonzoda R.A. Manbashunoslik: Oʻquv qoʻllanma. – Fargʻona: Classic, 2022. – 348 b.
3. Donyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – 451 b.
4. Fazulloh ibn Roʻzbexon. Mehmonnomayi Buxoro. – Toshkent: Sharq, 2014. – 214 b.
5. Mirzo Muhammad Xaydar. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Sharq, 2010. – 719 b.
6. Zayniddin Vosifiy. Badoyeʼ ul-vaqoe. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1979. – 320 b.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 336 b.
8. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent: Bayoz, 2021. – 246 b.

Кимсанова Р.Х.

Студентка 3 курса исторического факультета
Ферганский государственный университет
RushanaKhairullayevna@gmail.com

ТАШКЕНТСКОЕ ПРАВЛЕНИЕ В ПЕРИОД СЕВИНЧИХОДЖАХАНА И КЕЛДИ МУХАММАД-ХАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается период правления видных представителей династии Шейбанидов - Севинчходжа-хана и Кельди Мухаммад-хана в Ташкенте. Основное внимание уделяется комплексному анализу политических процессов и военно-стратегических аспектов того

времени. Автор детально исследует механизмы государственного управления и роль региона в системе Шейбанидского государства.

Ключевые слова: Шейбаниды, Ташкент, Севинчходжа-хан, Кельди Мухаммад-хан, политическое управление, военная стратегия, XVI век, Мавераннахр.

Kimsanova R.Kh.

The 3rd year student, Faculty of History

Fergana State University

RushanaKhairullayevna@gmail.com

TASHKENT RULE DURING THE PERIOD OF SEVINCHIKHOJAKHAN AND KELDI MUHAMMAD KHAN

ABSTRACT

This article examines the governance of Tashkent under the reign of Sevinchkhoja Khan and Keldi Muhammad Khan, two prominent figures of the Shaybanid dynasty. The research primarily focuses on the political dynamics and military strategies of the period, providing a scholarly analysis of the administrative significance and geopolitical influence of the Tashkent region within the Shaybanid state framework.

Key words: Shaybanids, Tashkent, Sevinchkhoja Khan, Keldi Muhammad Khan, political governance, military strategy, 16th century, Mavarannahr.